

Daftarda rassom va shifokor so'zlarining chizmasida r harfini o'rmini topib belgilang.

Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?*
- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*
- Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?*
- Qaysi topshiriqni bajarishga qiyonaldingiz?*

32-mavzu: [r] tovushi. Rr harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [r] tovushining talaffuzi va Rr harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [r] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: [r] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar. Yo'l harakati qoidalariga oid rasmlar.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga gap chizmasini chizadi. O'quvchilardan shu chizmaga mos gap tuzishni so'raydi.

-*Bugun siz bilan "Gap tuzish" mashqini o'tkazamiz. Doskada chizilgan gap chizmasiga qarang. Shu chizmaga mos gap tuzing.*

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida r harfi ishtirokida 5 ta so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlariningizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Qanday so'zlar tuza oldingiz?*
- *Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?*

- Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

2.Mavzuni mustahkamlash: (10 daqiqa)

O'qituvchi [r] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytildi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytildi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

randa(rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 2 bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. 2-bo'g'inda 2 ta tovush. R harfining o'mni 1- katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni ko'k rangga bo'yaladi.

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

Rasmga qarang. R harfi qatnashgan so'zlarni topib, ularga mos chizma chizing.

Raketa, robot, radio, sayyora, Yer kabi so'zlar topiladi va doskada chizmasi chiziladi.

Darslik bilan ishlash: (10 daqiqa)

- So'zlarni ketma-ket o'qing.
- Dialog navbatma-navbat o'qiladi.
So'roq gapning ohangiga e'tibor qaratiladi.
 - Bu ni-ma? Ru-bob-mi yo-ki du-tor?
 - Bu ru-bob. Men-da bit-ta ru-bob bor.
 - Ru-bo-bim kat-ta, ku-yi ma-yin.
- Gap mazmuniga mos so'zlar bilan to'ldirib, "Birdamlik" matnini o'qing.

Ak-mal, Ma-di-na, Bar-no, Ka-rim

bir bo'-lib, ra-ke-ta yasadilar . Ak-mal kar-ton o-lib kel-di. Ma-di-na u-lar-dan ra-ke-ta bo'-lak-la-ri-ni tayyor-la-di. Ka-rim bi-lan Bar-no bu bo'-lak-lar-ni ye-lim-la-di-lar. Bo-la-lar bir-dam-lik kat-ta kuch e-ka-ni-ni bil-di-lar.

Matnni o'qib rasm asosida suhbat o'tkazish va o'quvchilardan bu haqida nimalar bilishi so'raladi. Tavsiya etiladigan savollar.

- Rasmda nimalar tasvirlangan?
- Bolalar nima qilyaptilar?
- Ular raketa yasash uchun nimalardan foydalandilar?
- Siz ham o'rtoqlaringiz bilan birga biron narsa yasaganmisiz?

[r] tovushi. R harfi
32-dars

Rasmga qarang. R harfi qatnashgan so'zlarni topib, ularga mos chizma chizing.



o	a
i	u
o'	e
t	n
l	m
d	k
b	y
r	

– Bu ni-ma? Ru-bob-mi yo-ki du-tor?
– Bu ru-bob. Men-da bit-ta ru-bob bor.
Ru-bo-bim kat-ta, ku-yi ma-yin.

Birdamlik

Ak-mal, Ma-di-na, Bar-no, Ka-rim bir bo'-lib, ra-ke-ta █. Ak-mal kar-ton o-lib kel-di. Ma-di-na u-lar-dan ra-ke-ta bo'-lak-la-ri-ni tayyor-la-di. Ka-rim bi-lan Bar-no bu bo'-lak-lar-ni ye-lim-la-di-lar. Bo-la-lar bir-dam-lik kat-ta █ e-ka-ni-ni bil-di-lar.



43

5. Birgalikda ish qilishni qanday yaxshi tomonlari bor deb o`ylaysiz?
6. Raketa haqida nimalar bilasiz?

Daftар bilan ishslash: (10 daqiqa)

1. Bo`g`inlar jadvalini tuzib uni to`ldiring.
2. Bo`g`inlarni o`qing. Shu bo`g`inlar uchragan so`zni ifoda etuvchi mos rasmlar bilan bog`lang.
3. Harflar orasidan mosini qo`ying va so`z tuzib yozing.
arra, nur, dur, bur, tur, yur, yol, yor, yod, yot, yon.
4. Gaplarni avval nuqtalar ustidan so`ng mustaqil yozing.

Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?

33-mavzu: [q] tovushi. Qq harfi

Dars maqsadi:

- [q] tovushining talaffuzi va Qq harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [q] undosh tovush ekanligini bilib onladilar.
- so`zlardan [q] tovushining o`rmini aniqlashni o`rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so`zlar: qizil kitob, [q] tovushi

Didaktik materiallar: ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmi kartochkalar, Qizil kitob va unga kiritilgan ayrim hayvao va o`simliklar rasmi

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O`quvchilardan bugungi kun sanasi so`raladi.

Meni top mashqi: O`qituvchi doskaga B, D, K, R, U harflarini oxirigacha yozilmagan ko`rinishini qo`yadi, yoki yozadi. O`quvchilardan shu harflarni to`liq yozishni so`raydi.

- Bugun siz bilan “Meni top” mashqini o`tkazamiz. Doskada yozilgan harflarni yakuniga yetkazib yozib bering.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O`qituvchi qarg`a, tovuq rasmini qo`yadi. O`quvchilardan qanday ovoz chiqarishini va bu ovozda qaysi tovush hali o`rganilmaganini so`raydi.